

ARAB TILI CEFR IMTIHONIDA TALAB ETILADIGAN B2 DARAJASIDAGI GRAMMATIK QOIDALAR

Xusanova Sevara Alisherovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada arab tilidan CEFR inmtihonida B2 darajasidagi sertifikatni qo'lga kiritmoqchi bo'lgan talabalar uchun bilish nihoyatda zarur bo'lgan grammatik qoidalar mavjud. Hususan nahv va sarf qoidalariga katta e'tibor qaratilgan. Bazi o'rinlarda qoidalarni to'liq sharhlanmay uning nomini aytib o'tish bilan kifoya qilindi va ularni to'liq o'rganib chiqish talabaning o'z ehtiyooriga topshirildi va bu uchun kerakli manbaalar ko'rsatildi. Maqolaning yana bir o'ziga hosligi shundaki qoidalar tartibi har bir ko'nikma uchun alohida tuzilgan va arab tildagi misollar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: grammatika, nahv, sarf, fonetika, tinish belgilari, nutq uslublari.

ПРАВИЛА ГРАММАТИКИ, НЕОБХОДИМЫЕ ДЛЯ УРОВНЯ CEFR B2 ПО АРАБСКОМУ ЯЗЫКУ

Хусанова Севара Алишеровна

Студентка Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация: Статья содержит грамматические правила, чрезвычайно важные для студентов, желающих получить сертификат B2 на экзамене CEFR по арабскому языку. Особое внимание уделяется правилам грамматики и словоупотреблению. В некоторых случаях достаточно было упомянуть название правила без его полного объяснения, и студенту предоставлялось возможность изучить его полностью, при этом были указаны необходимые источники. Ещё одной особенностью статьи является то, что порядок правил структурирован отдельно для каждого навыка и дополнен примерами на арабском языке.

Ключевые слова: грамматика, синтаксис, словоупотребление, фонетика, пунктуация, стили речи.

GRAMMAR RULES REQUIRED FOR THE CEFR B2 LEVEL OF ARABIC

Khusanova Sevara Alisherovna

Student of Uzbekistan state world language university

Abstract: This article provides an overview of essential grammar rules for students preparing for the CEFR B2 Arabic language exam. It focuses on grammar structures and word usage. In some cases, the rules are mentioned without full explanation, allowing students to explore them further using the recommended sources. One of the key features of the article is the way the rules are organized by language skills, each supported with examples in Arabic.

Keywords: grammar, syntax, word usage, phonetics, punctuation, speech styles.

Biron bir tilni o'rganishning ikki hil usuli mavjud, ulardan birinchisi: o'rganilayotgan tilda muloqotga kirishish. Bu usul o'sha tilda muloqot qiluvchi davlatga borib qo'llanilsa samaraliroq va kamroq vaqt sarflaydi. Biroq bu usulning yagona kamchiligi - tildagi grammatik qoidalarining yaxshi o'zlashtirilmasligidir va bu tildagi ko'plab nuqson va kamchiliklarga olib keladi. Shuning uchun talabalarga til o'rganishni ikkinchi uslubidan, yani ustozdan o'rganishni boshlash tavsiya etiladi. Bu uslub talabaga tilni tartib bilan programmalashtirilgan holda dars olishini ta'minlaydi va bu til organuvchining grammatik qoidalariga rioya qilgan holda tilni o'rganib unda bexato so'zlashiga yordam beradi.

CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) til bilish ko'nikmalarini baholashda imtihon topshiruvchining grammatik qobiliyatiga katta ahamiyat qaratadi va bu ko'p hollarda yozish va gapirish ko'nikmalarini aniqlashda ko'rinadi. Shu sababdan imtihonga kirishdan avval til bilishda grammatik mahoratni oshirish tavsiya etiladi. Arab tili grammatikasi esa bundan mustasno emas va quyida bu haqida zaruriy ma'lumotlar keltirilgan.

Arab tili grammatikasining kelib chiqishi. Arab tili somiy tillar oilasiga mansub bo'lib u ko'p yillik tarixga ega. Ammo uning grammatikasining asosiy ustuni milodiy yettinchi asrda nozil bo'lgan musulmonlarning diniy kitobi Qur'oni Karim xisoblanadi. Bundan avval arab tili aniq bir qoidaga asoslanmay, unda so'zlashuv qabilalar va ularning geografik joylashuviga ko'ra farqlanar edi va bu holat hozirgacha davom etmoqda, lekin endi bu lahja (dialekt)larni birlashtiruvchi yagona qoidalar jamlanmasi ya'ni arab tili grammatikasi mavjud. Endi arab tilini o'rganish osonlashdi va bu uchun kerakli qo'llanmalar juda ham ko'p. Bu darajaga erishishda Qur'oni Karim asosda arab tilli grammatikasini tuzib chiqqan va uni o'rgangan olimlarning hissasi katta. Masalan Sibavaih hazratlari (760-796yy.) arab tili grammatikasini o'rgangan eng birinchi filolog olimlardan. U kishining arab tili grammatikasiga bag'ishlangan "Al-Kitob" asari hozirgi kunga qadar bu tilning eng asosiy qo'llanmalaridan hisoblanadi. Va yana shu qatorda Al-Farobiy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Az-Zamaxshariy kabi buyuk o'zbek olimari bu tilning rivojida o'zlarining buyuk hissalarini qo'shganlar va xozirda arab diyorlarda bu yetuk olimlarimizning asarlari katta obro'ga ega.

B2 darajasi uchun talab etiladigan grammatik ko'nikmalar. Grammatikani o'qigan va o'qimay shunchaki suhbatlashuv orqali tilni o'rgangan talabaning nutqida sezilarli farqlar mavjud. Bu tafovutni savodli inson darhol sezishi tabiiy, chunki biron bir tilda ravon va bexato gapirish uchun grammatika shart va zarur. Quyida arab tili grammatikasining muhim bo'limlariga qisqacha ta'rif berilgan.

1. Nahv (النحو) – sintaksis, yani arab tilidagi *gaplarning to'g'ri tuzilishini* va so'zlarning gapdagi ishtirokini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Arab tilida naxv qoidalarini bilmaslik arab bo'lmaganlar uchun tarjima qilish jarayonida ko'plab qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

2. Sarf (الصرف) – morfologiya, sintaksisdan farqli o'laroq arab tilidagi gaplarni emas, balki alohida *so'zlarning tuzilishini* o'rganuvchi fan. Arab tili leksikasida sarf ilmi o'ta muhim o'ringa ega, chunki arab tilidagi ko'plab so'zlar bir o'zakdan yasaladi va ana shu o'zak so'zning ma'nosini bilish orqali tahminan 120ga yaqin so'z yasash mumkin.

3. Fonetika (الصوتيات) – soʻzlarni tashkil qiluvchi *harflarning talaffuzini* oʻrganuvchi fan hisoblanadi. Bu fan xarflarning maxraji, yani nutq aʼzolaridan chiqish joyi va sifatlarini oʻrganadi.

4. Tinish belgilari (علامات الترقيم) – punktuatsiya, bu fan yozuvda aks etuvchi *tinish belgilarining toʻgʻri joylashuvini* oʻrganuvchi fan hisoblanadi. Har bir til oʻz tinish belgilari sistemasiga ega.

5. Nutq uslublari (أساليب الكلام) – bu insonning vaziyatga muvofiq muluqot qilish uslubidir. Inson turli oʻrinlarda turlicha soʻzlashadi, turli soʻz va iboralardan foydalanadi, bu holatni oʻrganish foidadan holi emas.

CEFR imtihonining grammatik talablari. CEFR imtihonining baholash qismida, talabaning grammatik bilimlari maʼlum meʼzonga asosan tekshiriladi. Quyida xar bir koʻnikmadan talab etiladigan grammatik qoidalarni B2 darajasida sharhlandi.

Eshitib tushunish koʻnikmasi. Bu boʻlimda asosan leksik bilim yuqori ahamiyatga ega, chunki eshitish orqali tayyor maʼlumot qabul qilinadi va uni analiz qilish orqali savollarga javob topiladi. Biroq bu grammatikani oʻrganish shart emas ekan, degani emas. Sarf ilmini bilish yuqorida aytilganidek soʻzlarni toʻgʻri tarjima qilish uchun oʻta muhim. Masalan:

U arab tilini oʻrganadi – هو يَدْرُسُ اللغة العربية –

U arab tilini oʻrgatadi – هو يُدْرِسُ اللغة العربية –

Bu ikki jumlaning farqi faqatgina feʼlning harakatlarida biroq maʼno tubdan farq qiladi. Birinchi jumladagi feʼl sulosiy mujarraddagi bir mafʼulga ega mutaaddiy feʼl, ish harakati birgina mafʼul ustida sodir boʻlayotganini anglatadi, yani nimani oʻrganadi? Arab tilini, bu yerda arab tili soʻzi mafʼul hisoblanadi. Ikkinchi jumlada esa mutlaq boshqacha maʼno, bu jumlada feʼl sulosiy maziddagi ikki mafʼulga ega mutaaddiy feʼl, va bu yerda ahamiyatli narsa shuki u arab tilini oʻrgatadi deyilganida gap toʻliq tugallanmayapti, balki يُدْرِسُ feʼli kimga dars oʻtdi? degan savolga javob berilishini talab etadi, va bu savolning javobi ikkinchi mafʼul bih hisoblanadi, misol uchun هو يَدْرِسُ الطفل اللغة العربية jumlasida kabi. Bu qoida bizga arab tilidagi feʼllarning manosi ularning tuslanishiga koʻra qanchalar oʻzgarishini koʻrsatadi.

Quyidagi jadvalda sarf ilmining B2 darajasidagi talaba bilishi lozim boʻlgan asosiy mavzular koʻrsatilgan:

№	Mavzu nomi
1.	Mujarrad va mazid
2.	Moziy, muzore, amr
3.	Feʼl boblari
4.	Lozim va mutaaddiy
5.	Maʼlum va majhul
6.	Sahih va muʼtal
7.	Inkor maʼnosini anglatuvchi feʼllar
8.	Ismi foil
9.	Ismi mafʼul
10	Ismi zamon va makon

.	
11.	Ismi olat
12	Ismi tafzil
.	
13	Fe'llarning tasrif va siyg'asi
.	
14	Masdar
.	
15	Muzakkar va muannas
.	
16	Mufrad, musanno, jam
.	
17	Nakira va ma'rifa
.	
18	Alam va ismi ishora
.	
19	Zamir
.	
20	Ismi mavsula
.	

Bu mavzularni chuqur egallash orqali eshitib tushunish paytida matndagi ma'noni sarfiy jihatdan to'liq tushunish mumkin, chunki savollar chalg'itivchi bo'lishi mumkin va bunday savollarga javobni faqatgina matnni tushunish orqali topiladi. Sarf ilmiga oid o'zbek tilida ko'plab qo'llanmalar mavjud, bulardan eng mashhuri Ibodulloh Axrorovning "Taysirus sarf" kitobidir. Bu kitob sarf ilmiga oid kerakli barcha ma'lumotlarni o'zida jamlagan va eng muhimi tushunarli va oson uslubda.

Eshitib tushunish ko'nikmasida sarf ilmi bilan kifoyalanilmaydi, albatta. Talaba egallashi lozim bo'lgan yana bir eng muhim narsa bu leksik ko'nikmadir, yani so'z boyligi. Bu mavzu grammatikaga oid bolmagani sabab bunga alohida to'xtalib o'tilinmadi. Va keyingisi naxv ilmi, bu bo'lim haqidagi kerakli mavzular quyida o'qib tushunish ko'nikmasining sharhida qisqacha bayon qilingan.

O'qib tushunish ko'nikmasi. Bu ko'nikmaning eng birinchi qismi talabaning sarf ilmidagi qobiliyatini tekshirish uchun mo'ljallangan. Sarf ilmining asosiy mavzulari yuqorida zikr qilindi va bu bilimlar B2 darajasi ushun kifoya qiladi. Keyingi qismlarda asosan grammatikadan naxv qoidalari muhim o'rin tutadi. Chunki matnlarni tushunish uchun so'zlarning joylashuvi va gapdagi o'rni haqida kerakli ma'lumotga ega bo'lish lozim, chunki matnlar harakatsiz, yani eroblanmagan xolda taqdim qilinadi. Naxv imini o'rganmay turib, matinlardan to'liq ma'noni anglash mushkul. Masalan:

– ona pirog pishirib, uni o'g'liga berdi **طَبَخَتِ الأمَ الفطيرةَ، وأعطتها لابنها**

Bu jumlaning birinchi qismida **طَبَخَتِ** (pishirdi) so'zi fe'l, yani ish-xarakati, **الأم** (ona) esa foil (ish-harakatining bajaruvchisi) va **الفطيرة** (pirogni) so'zi maf'ul bih hisoblanib o'zbek tilida to'ldiruvchi deyiladi. Ikkinchi qismda **أعطت** (berdi) so'zi fe'l)ish-

harakati(va uning foili)bajaruvchisi(jumlaning birinchi qismidagi **الأم**so‘zi. Va bu fe’lga zamiri muttasil bo‘lib kelgan **ها** (uni) qo‘shimchasini qoshish orqali birinchi qismdagi maf’ul bihiga **الفطيرة** so‘ziga ishora qilinadi. Va keyingi so‘z **لاين** (o‘g‘liga) jar va majrur maf’ul bihi o‘rnida va zamiri muttasil, yani **ها** qo‘shimchasi qo‘shilib **الأم** so‘ziga ishora qilyapti. Bu birgina jumlaning qisqacha o‘zbek tilidagi e’robi va bu gapni to‘liq anglash uchun uning tarkibi tushunarli bo‘lishi lozimligining yaqqol misoli. Quyida B2 darajasiga oid zaruriy naxv fanidagi mavzular ketmaketligi ko‘rsatilgan:

№	Mavzu nomi
1.	Kalima
2.	Kalom
3.	Mo‘rob va mabniy
4.	Rof, nasb, jar va jazm
5.	Ism, fe’l va xarf
6.	Mubtado, xabar
7.	Foil
8.	Noibi foil
9.	Maf’ul bih
10.	Maf’ul mutlaq
11.	Kana va uning axovatlari
12.	Inna va uning axovatlari
13.	Jar va majrur
14.	Atf va ma’tuf
15.	Sifat va mavsuf
16.	Adad va ma’dud
17.	Tavobe’
18.	Tavkid
19.	Asma ul-xomsa
20.	Asma ul-mavsula

Yuqorida keltirilgan mavzular ro‘yxati eng zarur mazularni o‘zida jamlagan va bu qoidalaga o‘zbek tilidagi eng tushunarli sharx San’atulloh Bekpo‘latning “Mabdaun naxv” kitobidir. Biroq arab tilida bu mavzuga oid kitoblar talaygina, misol uchun Ibn Ajrumning Ajrumiyya matni, Xolid Abdulazizning “Naxv tatbiqiy” asari, Xifniy Nosif, Muhammad Diyab, Mustafo Tammum va Muxammadbek Solihlarning “Ad-durusun-naxviyya” kitoblari va shunga o‘xshash yana ko‘plab kitoblar.

Mutolaa. O‘qib tushunish ko‘nikmasi talabadan ko‘proq mutolaa tajribasini ham talab etadi. Arab tilidagi matnlarni mutolaa qilish orqali miyyada arab tilidagi gaplarning strukturalariga bo‘lgan ko‘nikma hosil bo‘ladi va matnlarni tezroq o‘qish va tarjima qilishga yordam beradi. Bunda talaba shoshqaloqlik qilmay soddaroq kitoblarni mutolaa qilishdan boshlamog‘i darkor, aks holda bu undagi mutolaaga bo‘lgan qiziqishini so‘ndiradi va samaradorlikni pasaytiradi. Quyida mutolaa qilishda ahamiyatli bo‘lgan muhim maslaxatlar taqdim etilgan:

1. Mutolaani sodda matn va dialoglardan boshlash. Bunda arab tilini o'rganishdagi silsilaviy kitoblar ko'proq qo'l keladi. Bu kitoblarning boshlang'ich qismidagi matnlar, asosan oson struktura va bazaviy leksik birliklardan tuzilgan bo'lib o'quvchidagi o'qishga bo'lgan rag'batni oshiradi. Shu tariqa asta sekin qiyinroq matnlarga o'tiladi. Bunga turli hil ertaklar, qissalar, buyuk insonlarning biografiyasi, global muammolar yoritilgan matnlar misol bo'la oladi.

2. Yangi so'zlarni belgilab ularni lug'atdan qidirish. Lug'at kitobisiz yangi tildagi kitobni mutolaa qilishni boshlash - qaychisiz mato kesishga o'xshaydi, yangi so'zlar mavhumligicha qolaveradi va mutolaadagi samaradorlik pasayib ketadi. Bu vaziyatda lug'at sifatida turli gadjetlardan foydalanish tavsiya etilmaydi, bu o'quvchini mutolaadan tez zerikib boshqa narsalarga chalg'ib ketishiga olib keladi.

3. Matndagi yangi so'zlar va ta'birotlarga mustaqil jumla tuzish. Bu oson eslab qolishning eng samarali usuli.

4. Takroran o'qish. Ba'zan matndagi barcha so'zlar tanish bo'lsa ham undan biron ma'no chiqarish qiyin bo'ladi. Bunday hollarda matnni takroran o'qish ayni muddao. Bu usul, miyyani mutolaa jarayonida turlicha fikrlashiga yordam beradi, birinchi bor o'qilganda tushunilmagan gap, ikki yoki undan ko'proq miqdordagi takrorlardan so'ng tushunarli bo'lishni boshlaydi. Bu hol ilmiy tilda *reframing* deyiladi.

5. Matnni to'liq analiz qilish. Gaplarni shunchaki tarjima qilib, o'tib ketish bilan ish bitmaydi. Agar matn hayolan ma'no jihatidan jamlanmas ekan undan biron manfaat olish mushkul. Ko'p hollarda o'quvchilar mutolaa so'ngida matnning boshi va o'rta qismini yoddan chiqarib qo'yishadi. Buning sababi - mutolaa jarayonida diqqatning bir joyga jamlanmasligidir. Bu hollarda eng zo'r usul matnni o'z ona tilida yodda saqlash. Agar matn haqida savol berilsa ma'lumotni yana arab tiliga soddaroq so'zlar bilan tarjima qilib javob berish mumkin.

6. Mutolaa qilingan matnni mustaqil aytib bera olish. Bunda matnni yoddan aytish tushunilmaydi, balki chiqarilgan hulosani aytib berilsa bas. Bu talabani arab tilidagi matndan kerakli ma'lumotni chiqarib olishga va uni tinglovchiga to'g'ri yetkazib berishga undaydi va mahoratni oshiradi.

Bu qoidalar mutolaadan olinadigan foidani yanada oshiradi. Ularga amal qilish orqali arabtilida o'qib tushunish ko'nikmasini oson rivojlantirish mumkin.

Yozish ko'nikmasi. Bu bosqich talabadan katta grammatik ko'nikma talab etadi. Yozish orqali arab tilidagi bor mahorat matn shaklida k'rsatib beriladi. Bunda sarf, naxv, so'z boyligi, nutq qilish uslublari, shaxsiy fikr barchasi bir matnda jamlanadi. Sarf va naxv ilmidan B2 darajasi uchun bilish lozim bo'lgan mavzular yuqoridagi jadvallarda aytib o'tildi. Bu mavzularga yuzaki qarash hato, chunki mukammal ravishta o'zlashtirilgan mavzugina insho yozish jarayonida foyda bera oladi. Bu qoidalardan foydalangan holda matn yaratishni mashq qilish lozim. Buning uchun tayyor matnning sifatini tekshirib bera oladigan uztoz muhim ro'l o'ynaydi, chunki inson o'zidagi kamchiliklarni aniqlashi mushkul masala. Demak, yozish mahoraini rivojlantirishning eng yaxshi yo'li bu *tajriba*.

Murakkab gap tuzish strukturalaridan foydalana bilish yozish ko'nikmasining yuqori bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma nutqning go'zal bo'lishida turli

ibora va soʻz birliklarini oqilona ishlata bilish shart. Misol uchun quyidagi maʼno jihatidan bir biriga yaqin boʻlgan ikki jumlani olaylik:

- عندما عُدتُ إلى البيت، هو كان يلعب في الحديقة (A2 darajasida)
- بعد عودتي إلى المنزل، وجدته لاعبا في الحديقة (B2 darajasida)

Uyga qaytganimda, u bogʻda oʻynayotgan edi.

Bu ikki jumla oʻrtasidagi tafovut uncha katta emas, biroq ularning qay biri grammatik jihatdan murakkabroq, nutqda kam qoʻllaniluvchi va talaffuz jihatidan chiroyliroq boʻlsa shunisi afzal. Bu misol matn yaratishda gapning strukturasi yozuvchining til bilishdagi darajasini yaqqol namoyon qiladi. Shu sababda mutolaa qilish orqali foydalanish mumkin boʻlgan gap strukturalarini mulohaza qilish tavsiya etiladi.

CEFR imtihonlarida yozish koʻnikmasini tekshirishda talabadan uch hil nutq uslubida matn yaratish talab etiladi. Avval arab tilidagi funksional nutq uslublari bilan tanishib chiqish lozim. Demak:

1. Adabiy uslub (الأسلوب الأدبي) – arab adabiyotida, sher va nazmlarda foydalaniluvchi uslub.
2. Ilmiy uslub (الأسلوب العلمي) – ilm-fanga oid mavzuarda, tahlil qilish va fikr bildirishda foydalaniladi.
3. Diniy uslub (الأسلوب الديني) – Qurʼoni Karim, xadislari va diniy matnlarda qoʻllaniladi.
4. Jurnalistik uslub (الأسلوب الصحفي) – televideniye, radio, gazeta va jurnallarga hos.
5. Kundalik nutq uslubi (الأسلوب اليومي أو الشخصي) – doimiy mulohazada foydalaniladigan nutq uslubi hisoblanadi.
6. Rasmiy uslub (الأسلوب الرسمي) – hujjatlar, rasmiy murojaatlar, davlat idoralarida qoʻllaniladi.

Bilish zarur boʻlgan 3 hil uslub, bular: ilmiy, rasmiy va kundalik nutq uslublari. Ilmiy uslubda insho yoziladi. Bunda insho aniq, grammatik qoidalarga rioya qilingan holda, ortiqcha hissiyotlarsiz, maʼlumot va faktlarga boy turli terminlardan foydalanilgan hola yoziladi. Bu sifatlar inshoning toʻgʻri va mazmunli boʻlishiga yordam beradi.

Keyingi bosqich xat yozish. Bu qism mavzuning nomiga koʻra rasmiy yoki shaxsiy boʻlishi mumkin. Masalan:

اكتب رسالة شخصية لأخيك أو أختك تخبرهم فيها كم تقدمهم، وكم تحبهم، وكم تريد مقابلتهم، وأيضا أذكر الأيام الممتعة قضيتها معهم.

Ushbu xatning mavzusi yaqin birodaga, yaʼni aka yoki opaga yonaltirilgan, demak bu shaxsiy xat va unda kundalik ogʻzaki uslubdan foydalanish mumkin va erkinlik mavjud. Bunday xat yozish uslubida xislatlar, shaxsiy savollar, sodda va kundalik iboralardan foydalaniladi va xech qanday takalluf va rasmiyatchilik talab etilmaydi. Quyida rasmiy xat mavzusiga misol:

شركة توظيف: أكتب رسالة تعبر فيها عن رغبتك في الانضمام للشركة، وتقديم سيرتك الذاتية للتوظيف.

Bu mavzuda ishga joylashtiruvchi kompaniyaga murojat qilinmoqda va bu oʻz oʻzidan rasmiyatchilikni talab etadi. Xatda aniq bir insonga aniq bir maqsad ila murojaat qilinadi, gaplar ortiqcha takalluflarsiz hurmat dorasida tuziladi va aniq-ravshan bayon qilinadi.

Nutq uslublaridan tashqari yozish ko'nikmasida tinish belgilarining ham ahamiyati katta, arab tili *punktuatsiyasi* naxv fani orqali o'rganiladi. Talabani matnga tinish belgilarini joylashtirishiga ko'ra undagi tartib, ma'no jihatidan tugallangalik va grammatik mukammallik baholanadi. Shu sababdan bu ilmni ham ahamiyatdan chetda qoldirmaslik zarur.

Gapirish ko'nikmasi. Bu ko'nikma leksik grammatik va fonetik bilimlarni aniqlash uchun ayni muddao. Bu qismda naxv, sarf va lug'atdan o'rganilgan barcha narsalar og'zaki nutqda qo'llaniladi. Bu esa albatta tajriba va mashq orqali orttiriladi. Eng ko'p duch kelinadigan muammolardan biri ham aynan miyyadagi ma'lumotlarni gapirish orqali ifoda eta olmaslikdir. Buning yechimi esa arab tili ona tilisi bo'lgan inson yoki sun'iy intellekt bilan ko'proq muloqot, matnlarni ovoz chiqarib o'qish, turli global mavzularda nutq qilish va hokazolar.

Gapirish ko'nikmasini boshqalaridan ajratib turuvchi yana bir muhim jihat - bu *fonetika* hisoblanadi. Chunki talabani til o'rganishdagi tajribasi uning harflarning to'g'ri talaffuz qilishida namoyon bo'ladi, buning sabablari turlicha:

1. Ko'p muloqot natijasida so'zlarni talaffuz qilish osonlashadi va mahorat oshadi. Biroq gapirish ko'nikmasini baholashda tezlik emas, balki aniqlik muhim, shu sababli harflar talaffuziga ham ahamiyat bermoq darkor.

2. Xarflarni to'g'ri talaffuz qilish natijasida so'zlardan qasd qilingan ma'nolar oson tushuniladi. Masalan og'riq ma'nosini anglatuvchi **اَلَمْ** so'zi, va bayroq ma'nosini anglatuvchi **عَلَمْ** so'zi, bu so'zlarni **ا** va **ع** xarflari ajratib turadi, biroq o'zbek tilida **ع** xarfi bo'lmagani uchun talaffuzda xatolarga duch kelish mumkin, va bu tinglovchida nutqni tushinishda ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

3. Og'zaki nutqda o'zbek aksentining sezilmasligi. Bu ham katta tajriba orqali erishiladigan ko'nikma hisoblanadi.

Gapirish ko'nikmasi nutqdagi ravonlik va o'ziga bo'lgan ishonchni talab etadi. Savollarga javob berishda ko'p o'ylanmay dadil javob berish muhim, shu sababli ko'proq arab tilida so'zlashishni mashq qilish lozim.

Xulosa. Maqoladan asosiy maqsad arab tilini o'rganuvchilarni naxv va sarf kabi grammatik qoidalarni o'rganishga rag'batlantirish. Cefr imtihonida B2 darajasiga erishish uchun o'zlashtirilishi lozim bo'lgan asosiy grammatik mavzularni belgilab chiqish va amalga tatbiq qilish. Bu maslahatlarga rioya qilish orqali talaba ko'plab xato va kamchiliklarni bartaraf etadi. Shuningdek CEFR sertifikatini qo'lga kiritish uchun o'z oldiga kerakli vazifalarni qo'yishni o'rganadi.

Yuqorida zikr qilingan adabiyotlarni o'qib chiqish orqali grammatik ko'nikmani bazaviy darajada o'zlashtiriladi. Bu mavzudagi kitoblarning soni juda ko'p va bu kitoblarni internet tarmog'idan oson topish mumkin. Asosiysi dangasalik qilmasik va astoydil shug'ullanish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. Modern languages division. Strasbourg. 2001.
2. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment: Structured overview of all CEFR scales.

3. Antonella Ghersetti, Andrea Facchin. TEACHING ARABIC AS A FOREIGN LANGUAGE: Origins, Developments and Current Directions.
4. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent-2012.
5. Zafar Abdumuminovich Norboyev (2022). ARAB TILIDA CEFR MEZONLARI ASOSIDA YARATILGAN A1 DARAJADAGI O'QUV DASTURLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. Academic research in educational sciences, 3 (8), 5-11.muminovich Norboyev (2022).
6. Norboyev, Z. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA CEFR MEZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISHNING ME'YORIY-USLUBIY ASOSLARI. ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI, 1(1). Academic research in educational sciences, 3 (8), 5-11.
7. Norboyev, Zafar (2022). CEFR MEZONLARI ASOSIDA YARATILGAN YANGI AVLOD DARSLIKLARINING ARAB TILINI O'RGATISHDAGI O'ZIGA XOSLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 24), 497-506.